

Yosh Oilalarda Sog'lom Psixologik Muhitni Tarkib Toptirish Ahamiyati

Baratov Nasriddin Karshibayevich
O'qituvchi, JDPU

Annotatsiya: Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shu asosda ushbu maqolada yosh oilalarda so'g'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Katil so'zlar: Oila psixologoyasi, jamiyat, oila, ijtimoiy-psixologik muhit, huquqiy, tibbiy, jismoniy, ma'naviy, malaka, ko'nikma, vazifa.

Oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir. Shu sababli Respublikamiz rahbariyati har bir xonadonning tinchligini, oilalarda farzandlarning baxtli, barkamol o'sishini ta'minlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev aytganlaridek —Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi.

Darhaqiqat jamiyatning kuch-qudratini ta'minlaydigan eng oliy qadriyat oilaning tinchligi va mustahkamligidir. Bizga ma'lumki yurtimizda oila, nikoh masalalari azal azaldan qadrlanib kelinadi. Bu muqaddas qadriyatlar hozirgi davrgacha ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Oilalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ro'li beqiyos, chunki har bir shaxs tarbiyasi avvalo kichik bir vatan-oiladan boshlanadi. Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatga har tomonlama sog'lom, barkamol, yetuk shaxslar kerak. Bunda jamiyatda oilaning rolini oshirish uni yanada mustahkamlash, oiladagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, yosh oilalardagi muammolar yuzasidan tadqiqot olib borish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni yetuk shaxs qilib tarbiyalash ularni hayotda o'z o'rnini topishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun albatta, jamiyatdagi endi tarkib topayotgan yosh oilaga e'tibor qaratish lozimdir. Oila – inson o'z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad muddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir. Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir.

Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog'omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot- mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin. Yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolar yechimini o'rganish borasida yurtimiz psixolog olimlari tomonidan bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmogda. Jumladan, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, X.K.Karimov, Sh.Sh.Jo'rayeva, F.A.Akromova, R.M.Abdullayeva, Yo.No'monova, M.O.Utepbergenov, R.A.Samarov, T.Norimbetov kabi olimlarimiz va ularning izdoshlari tomonidan so'nggi yillar davomida o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy rollar taqsimoti, oilalardagi shaxslararo munosabatlar hamda oilaviy muammolar kabi masalalar o'rganilgan. Respublikamizda keyingi yillarda oila-nikoh munosabatlari o'zgarib bormogda. Bu boradagi o'zgarishlarga:

- 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o'zgarib borishi;
- 2) oila a'zolari sonining va tug'ilishning kamayishi, murakkab ko'p oilali tipdan, alohida mavjud bo'lgan oilalar tipiga aylanib borayotganligi;
- 3) oilaviy munosabatlar tizimida er-xotin funksiyalarining va oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarib borayotganligi;
- 4) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o'zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin.

Barcha xalqlar uchun yosh oila muammolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hozirgi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy psixologiyada oilaviy hayot muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, uning hali yetarli darajada o'rganilmagan tomonlari ham yuzaga kelmoqda. Shular jumlasiga yosh oilalarda er-xotin o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishini tadqiq etishni ham kiritish o'rinlidir. Bu borada ko'plab psixolog olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A.V.Shabayeva er-xotinlikda yetakchilikning ijtimoiy-psixologik jihatlari mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, musulmon oilalaridagi nikohning gender modeli er-xotinning oiladagi rolini yuksalib borishiga xizmat qilishini asoslab bergan. Er-xotinning yetakchilik munosabatlari er-xotinning yoshi, jinsi va etnik kelib chiqishi, shuningdek, oilaviy hayotning ijtimoiy-iqtisodiy shartlari bilan belgilanishi izohlangan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan barcha juftliklar to'rt turdagi oilani: an'anaviy, teng, noan'anaviy, ambivalent oilani namoyish etganliklari ko'rsatib o'tilgan. Muayyan turni tanlashni belgilovchi omillar: yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi va hududiy turar joylari, shuningdek oila yetakchisining shaxsiy xususiyatlari va ularning qiymat yo'nalishi bilan bog'liqdir. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy yetakchilik modeli "nikohda gender assimetriyasini" rad etadi, ayol huquqlari buzilmaydi. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlarning bunday modeli gender nizolarini kamaytiradi; ayol va erkak an'anaviy rollarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi va shuning uchun oila institutini mustahkamlaydi. A.G.Svyashyennik o'z tadqiqotlarida xristian diniga mansub kishilarning oilaviy munosabatlari madaniyati haqida alohida to'xtalib, yosh kelin-kuyovning oila qurishga va oilaviy munosabatlarga jismoniy, psixologik va ma'naviy-axloqiy jihatdan muayyan darajada tayyor bo'lmasligi (kuyov yoki kelinning bir-biriga nomuvofiqligi) oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi, ularning kuchayib borishi, oxir-oqibatda oilaning buzilishiga olib kelishi haqida hayotiy misollar va diniy nuqtai nazardan asosli tahlillar yordamida keng yoritganligini ko'ramiz. Agar oilada shaxslararo munosabatlar madaniyati shakllangan bo'lsa, oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rnini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. G.Roland esa o'z izlanishlarida yosh er-xotinar oilasidagi shaxslararo munosabatdan qoniqishlari uchun zarur kommunikativ sifatlarni ajratib ko'rsatgan:

1. Muloqotchanlik.
2. Oilada yuqori darajadagi o'zaro tushunish.
3. Er-xotinlarning jinsiy qoniqqanligi.
4. Emotsional qo'llab-quvvatlashning mavjudligi va ishonch.
5. "Uy"ni oiladagi hamjihatlikni belgilovchi maskan deb qarash.

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, o'zaro munosabatlar ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'ladigan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, qishloq xo'jaliklari, sanoat ishlab chiqarish, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan

inson omiliga, inson shaxsiga o'ziga xos yangicha talablar qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqat munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda o'z ifodasini topadi. Maxsus adabiyotlarda yozilishicha va o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2-3 yil ilgari ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarni jinsiy balog'atga yetish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi. Ilgarigi o'smirlar 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan de'vonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarning odatda 13-14 yoshida shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilinmagan, 2-3 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi ish yuritadigan mutaxassisga aylangan. Mabodo u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbirlar, marosimlarda yetuk ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan tan olingan. Shaxsning oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyatni his qilishi esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Endi shu xususiyatlarning bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarida jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar, biroq ular biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun avvalo maktabni bitirishi, yoki 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi. 11 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yoshlarimizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari odamlarning kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi uni inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola keyinchalik nafaqat ota onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr oqibatsiz bo'lib, shafqatsiz, zolim, xudbin jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin. Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ekspertlar ta'kidlashlaricha, MDH mamlakatlarida yosh oilaning eng katta muammo to'rtta xususiyatga ega:

1. Yosh oilalarga moddiy va ma'naviy xavfsizlikning yetarlicha darajasining yo'qligi.

2. Yosh oilalarning ijtimoiy muammolari barobar kamroqdir, oilaviy hayotni tashkil etish, o'z yashash joylarini sotib olish va hokazolarni talab qilish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy va moddiy ehtiyojlarning yo'qligi.
3. Turmush o'rtoqlarni ijtimoiylashtirish ortishi davri hisoblanadi. (ta'lim, joyi).
4. Yosh oilada psixologik moslashish.

Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri – yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko'nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o'tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Yigit-ku o'z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og'iri kelinning bo'yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a'zolari bilan muomala maromlarini to'g'ri o'rnatishdir. O'tkazilgan tadqiqotlardan yana shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri – qaynonalar bilan yangi kelinning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralari bilmaydi. Oila hamjihatlikda yashashi o'zaro hurmat qaror topmog'i lozim. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarning to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari, erning daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda oilada sog'lom psixologik muhitning yaratilishi, sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sog'lom psixologik muhit er va xotin o'rtasidagi psixologik jihatdan yetilganlik hamda ijtimoiy jihatdan tayyorlik asosida shakllanadi. Sog'lom turmush tarzining oilaviy muhitga ta'siri ham katta hisoblanadi. Ya'ni ularning sog'lom turmush tarziga rioya qilishi mental psixologik holatini yaxshilaydi. Sog'lom turmush tarzi oilaviy muhitning ijtimoiy psixologik jihatdan o'zgarishiga ta'sir o'tkazadi. Sog'lom munosabatlar sog'lom turmush tarzidan boshlanadi. Ushbu holatlar oiladagi ijtimoiy psixologik jarayonlarga katta ta'sir o'tkazadi. Oilada sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda sog'lom psixologik muhitning ijtimoiy psixologik ahamiyati ushbu jarayonlarning sinxron ravishda tashkil qilganligiga bog'liq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni <https://lex.uz/docs/4789015>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son qarori <https://lex.uz/docs/4789015>
3. G'oziyev E. O'zbek xalqining etnopsixologiyasiva bola tarbiyasida o'zbek oilasining etno psixologik muammolari // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent, 1993.
4. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni shakllanishi // Dis.. psixol. fanl. dokt.– Farg'ona, 1994
5. Yusupov E. Oila ma'naviyat bulog'i. - T. 2003.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008.

7. Akramova F.A. Yoshlarni oilaga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari // Oila va maktab. 2015. № 10.